

## 2019 yilning yanvar-iyul oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Jizzax viloyatida jami **1330,1 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **125,3 %**ni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **45,1 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,4 %**ni hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **256,5 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **71,3 %** yoki **947,8 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **135,7 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **25,3 %** yoki **337,2 mlrd.so'm** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **96,2 %**ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-iyul oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

#### Yirik qurilish tashkilotlari

-hajm	45,1 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati	256,5 %

#### Kichik korxonalar va mikrofirmalar


-hajm	947,8 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati	135,7 %

#### Norasmiy sektor

-hajm	337,2 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati	96,2 %

2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining qariyb **71,3 %** kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan  
qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan)




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi **3,4 %**ni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining **71,3 %**ni tashkil etdi yoki **947,8 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **135,7 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **337,2 mlrd. so'm**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning **25,3 %**ga teng bo'ldi. Shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga



nisbatan **96,2 %**ni tashkil etdi.


**2019 vilning yanvar-iyul oylarida  
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari  
(jamiga nisbatan %da)**



Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (85,2 %), Sharof Rashidov tumanida (78,0 %), Paxtakor tumanida (74,3 %), G'allaorol tumanida (65,5 %), Yangiobod tumanida (62,3 %) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Zafarobod (31,6 %) va Arnasoy tumanlarida (33,4 %) kuzatildi. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keldi – hududdagi jami qurilish ishlarining 68,4 %, Arnasoy tumanida 66,6 %ni tashkil etdi.

## 2019 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Mirzacho'l, Zomin tumanlari hamda Jizzax shahrida kuzatildi.

Zomin tumanida asosan qurilayotgan namunaviy loyihalardagi turar joylarining qurilish ishlari jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **135,5 %** bo'lishi ta'minlandi.

Forish tumanida yuqori o'sish sur'ati, yani **128,6 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari va barpo etilayotgan sotish uchun mo'ljallangan turar joylar qurilishining natijasidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami

qurilish ishlari hajmidan **77,0** %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,1** % punktga ko'paydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda **14,3** %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **8,0** % punktga kamaydi, maxsus qurilish ishlari hissasiga esa **8,7** %ga to'g'ri keldi.


### 2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(mlrd.so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1330,1</b>	<b>45,1</b>	<b>947,8</b>	<b>337,2</b>
Jizzax shahar	497,1	21,8	495,1	63,7
<b>tumanlar:</b>				
Arnasoy	16,1	-	6,3	12,5
Baxmal	49,8	-	25,4	32,7
G'allaorol	80,9	-	61,8	32,6
Sharof Rashidov	165,2	-	150,4	42,3
Do'stlik	33,4	-	16,8	22,2
Zomin	62,6	16,4	35,0	24,9
Zarbdor	39,5	-	29,7	16,5
Zafarobod	18,3	-	6,7	14,6
Mirzacho'l	26,1	6,9	13,5	9,6
Paxtakor	75,5	-	65,4	22,7
Forish	47,5	-	23,6	31,9
Yangiobod	24,9	-	18,1	11,0

## 2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

(mlrd.so'm)



Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida **580,6 mlrd. so'm**ni tashkil etdi. Buning sababi Shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko'p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko'ngil ochish maskanlarini barpo etilayotganini takidlash mumkin.

Shu bilan bir qatorda qurilish ishlari yuqori sur'atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bajarilgan qurilish ishlari **192,7 mlrd. so'm**ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlarining asosini namunaviy loyhalar asosida




qurilayotgan uylar qurilishi tashkil qilmoqda.

### 2019 yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



### 2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi ishlarining qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **77,0 %**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichga nisbatan **4,1 %** punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **14,3 %**ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8,0 %** punktga kamaydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari xissasida esa **8,7 %** to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan **3,9 %** punktga ko'paydi.


### 2019 yil yanvar-iyul oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)

	yanvar-iyul	
	2018 y.	2019 y.
<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>972,3</b>	<b>1330,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	50,5	52,1
nodavlat	921,8	1278,0

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **1278,0 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **96,1 %**ni tashkil qildi.



### 2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Jizzax shaxriga **43,6 %**ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov tumaniga **14,5 %**, G'allaorol tumaniga **7,1 %** va Paxtakor tumaniga **6,6 %**ga to'g'ri keldi.

**Jizzax viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **D.Mullajonov**  
 Aloqa telefoni: **(0371) 230-83-55**